



SALOMATLIK – TUMAN BOYLIK

ЗДОРОВЬЕ НАРОДА — БОГАТСТВО СТРАНЫ

PEDIATR

№ 14 (933)
10-sentabr, shanba
2022-yil

TOSHKENT PEDIATRIYA TIBBIYOT INSTITUTI MEHNAT JAMOASI NASHRI
ОРГАН ТРУДОВОГО КОЛЛЕКТИВА ТАШКЕНТСКОГО
ПЕДИАТРИЧЕСКОГО МЕДИЦИНСКОГО ИНСТИТУТА

Gazeta 1974-yil
mardan chiga
boshlagan

ULUG‘ NE’MAT VA AZIZ BURCH

**B. T. DAMINOV,
ToshPTI rektori,
Xalq deputatlari Toshkent
shahar kengashi deputati**

Insondagi eng oliy tuyg‘u – Vatan tuyg‘usidir. O‘zi tug‘ilib-o‘sgan ona yurtini jon qadar sevadigan, o‘zga yurt tabiatidan o‘z yurti tabiatichalik zavq ololmaydigan, diyoridagi katta-kichik yutuqlardan faxrlanadi-gan, hatto mitti chumoli harakatidan zavqlanadigan butun aql-zakovati, qalb qo‘ri, kuch va imkoniyatini shu jamiyat rivojiga baxshida eta olgan insondagina bu tuyg‘u namoyon bo‘ladi.

Inson baxtli bo‘lishi uchun erkin bo‘lishi, erkin bo‘lishi uchun mustaqil bo‘lishi kerak ekan, demak, eng avvalo, mustaqillikning mazmun-mohiyatini anglab olish kerak. Shukrki, ona diyorimiz mustaqilligining 31 yilligini nishonlayapmiz.

Xalqning ulkan jasorati va matonati bilan 1991-yil 31-avgust kuni qo‘lga kiritilgan O‘zbekiston Respublikasining davlat mustaqilligi ko‘p ming yillik tarixdagi hech qachon unutilmaydigan, qadr-qimmati va ahamiyatli yillar, asrlar o‘tgani sayin tobora ortib boradigan buyuk tarixiy voqeadir.

O‘zbekiston mustaqilligining 31 yilligi “Yangi O‘zbekistonda el aziz, inson aziz” shiori ostida o‘tkazildi.

O‘zbekiston Respublikasi davlat mustaqilligining o‘ttiz bir yilli-gi Qoraqalpog‘iston Respublikasi, viloyatlar markazlari va Toshkent

shahrida, shuningdek, barcha shahar va tumanlar, qishloq va ovularda keng nishonlandi. Jamiyatning har bir qatlami, tashkilot, muassasa, ta‘lim dargohlari bu sanani o‘zgacha shukuhda kutadi.

An‘anaga muvofiq Toshkent pediatriya tibbiyot institutida ham “Mustaqillik kuni” tantanalar muносib tarzda bayramli kunlarga ulandi. Jumladan, 5–8-sentabr kunlari 2022–2023-o‘quv yili uchun qabul qilingan 1-kurs talabalari o‘rtasida “Mustaqillik – eng ulug‘ va eng aziz ne’mat” mavzusida mustaqillik darslari tashkil etildi. Institutning professor-o‘qituvchilari tomonidan har bir guruhsda O‘zbekiston Respublikasi Mustaqilligining 31 yilligiga bag‘ishlangan “YANGI O‘ZBEKISTONDA EL AZIZ, INSON AZIZ!” mavzusida mustaqillik darslari o‘tildi. Mavzu bo‘yicha prezintatsiyalar qo‘yib berildi. Mustaqillik darslari barcha kurslar kesimida kafedra o‘qituvchilari tomonidan berilgan materiallar orqali talabalarga yetka-zildi.

So‘nggi yillarda mamlakatda amalga oshirilayotgan tub demokratik islohotlar, xalqning hayoti, qalbi va ongida yuz berayotgan ijobiy o‘zgarishlarga barchamiz guvohmiz.

Bugungi tinch va erkin hayotni qadrlab, shukronalik tuyg‘usi bilan yashashga, inson qadrini ulug‘lashga da‘vat etadigan ma’naviy-ma’rifiy tadbirlar esa yil bo‘yi davom etadi.

Davlat rahbari istiqlolning 31 yillik to‘yi munosabati bilan vatandoshlarimizga yo‘llagan tabrigida shunday so‘zlar bor edi: “2022–2026-yillarga mo‘ljalangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasini amalga oshirish, erishilgan yutuqlarni mustahkamlab, tub islohot jarayonlarini yangi bosqichga ko‘tarish, inson huquq va manfaatlari, uning qadri, sha’ni va g‘ururini yetakchi o‘ringa olib chiqish ustuvor vazifamizga aylangan hozirgi vaqtida yurtimizda tinchlik va barqarorlikni saqlash, davlatimizning hududiy yaxlitligi va bo‘linmasligi, sarhadlarimiz daxlsizligini ta’minalash, millatlararo totuvlik, diniy bag‘rikenglik va hamjihatlikni mustahkamlashga intilish ko‘p millatli xalqimizni yanada birlashtiradigan, yuksak marralarga safarbar etadigan beqiyos kuchga aylanib bormoqda”.

Darhaqiqat, osmoni musaffo, tuni osuda, ertasidan ko‘ngli to‘q xalqning maqsadi aniq, qadami katta, rejasи puxta bo‘lishi kerak. Yurtboshimiz boshchiligidagi olib borilayotgan keng ko‘lamli islohotlar targ‘iboti va natijasidan hech bir vatandoshimiz chetda qolmayotganidek, yaratilayotgan imkoniyat va shart-sharoitlarga labbay deb javob berish ham har birimizning fuqarolik burchimizdir. Shunda mustaqilligimiz abadiy, hayotimiz farovon bo‘ladi.

PORLOQ KELAJAK GAROVI



Yer yuzida yashayotgan eng mukammal mo'jiza, murakkab vujud sohibi tabarruk inson bo'sha, ayol ana shu mo'jizaning go'zal namunasidir. Shuning bilan ayol beqaror qalb sohibasi, tabarruk ona, aqli beka va hamma jabhada o'rnak bo'la oladigan, jamiyatning rivoji uchun o'zining fidokorona mehnatini ayamaydigan shaxsdir. Muhtaram Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev ta'kidlaganidek, "... ayol siyosmosi Yaratganning tengsiz mo'jizasi bo'lib kelgan va hamisha shunday bo'lib qoladi". Bugungi kunda zamonomiz ayollarining ilmiy, iqtisodiy, ma'naviy-madaniy sohalardagi ishtiroti, fidokorona mehnatlari Vatanimiz taraqqiyotiga sezilarli darajada ta'sir ko'rsatmoqda.

Hozirda O'zbekiston davlat siyosating bosh yo'nalishlaridan biri ham xotin-qizlar ahvolini yaxshilash, ijtimoiy-iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish jarayonida ularning faolligini oshirish, shuningdek, ularning huquqlari, manfaatlarni himoya qilish bilan birga ilm va hunar egallashlari uchun shart-sharoitlar yaratish, bandligini ta'minlashdan iboratdir.

Shu bilan birga mamlakatimizda qizlarimiz ta'lrim olishiga keng yo'l ochib berilayotganligi, yurtimizdagi oliy ta'lrim maskanlarida ta'lrim olayotgan yoshlarimizdan 60 foizini qizlar tashkil etishi ham alohida e'tiborga loyiq. Agar bundan olti yil avval oliyohlarda 110 ming nafar qizlarimiz tahsil olgan bo'sha, bugungi kunda ularning soni 400 ming nafarga yetdi yoki ularning ulushi 2016-yildagi 38 foizdan ayni paytga kelib qariyb 50 foizga yetdi.

Bu tobora o'quvchi qizlarning bilim olishga ishtiyoqi ortib borayotgani, shuningdek, oliy ma'lumotli xotin-qizlar safining kengayib borayotganini ko'rsatadi. Har qanday xalqning yetuklik darajasini,

avvalo, ayollarining ilmiy-madaniy kamoloti belgilab berishi, oqila va o'qimishli onalar millatning buyuk kelajagini yaratishlari hammamizga yaxshi ayon. Donishmandlarning "Bitta qiz bolani o'qitsangiz – butun oilani o'qitgan bo'lasiz", deya ta'kidlagani beziz emas.

Bugungi kunda mamlakat aholisining deyarli yarmini tashkil qilayotgan xotin-qizlarga davlatimiz tomonidan berilayotgan e'tibor, konstitutsion huquqlarining tengligi, shu jumladan, ijtimoiy, ma'naviy-madaniy jarayonlarda ishtirotikni o'rganishga qaratilganligi bilan alohida ahamiyatga ega. Hozirgi kunda mamlakatimizda xotin-qizlarning ta'lrim olishi uchun keng imkoniyatlar yaratilmoqda. Bu borada, avvalo, 2022–2026-yillarga mo'ljallangan "Xotin-qizlar ta'limi ni qo'llab-quvvatlash milliy dasturi" qabul qilinganligini alohida e'tirof etishimiz mumkin.

Bu nima degani? Demak, endi yangi o'quv yilidan boshlab magistraturada o'qiyotgan qizlarning kontrakt pullari to'liq byudjetdan qoplab beriladi, har yili 50 nafar qizlar nufuzli xorijiy oliyohlarga bakalavr va 10 nafari magistraturaga yuboriladi, har bir viloyatda ehtiyojmand oila vakillari, ota yoki onasini yo'qtogan 150 nafar qizlarning (jami 2,1 ming nafar) ta'lrim kontrakti mahalliy byudjetdan to'lab beriladi, yosh farzandi bor talaba-qizlarga masofaviy o'qishga sharoit yaratiladi, doktorantura yo'nalishida xotin-qizlar uchun har yili kamida 300 tadan maqsadli kvota ajratiladi.

Xotin-qizlar ta'lrim-tarbiya tizimini yanada takomillashtirish yuzasidan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti va Vazirlar Mahkamasi tomonidan sohaga oid 100 ga yaqin farmon, qaror, farmoyishlar qabul qilindi. Xususan, joriy yil-

ning 18-iyul kuni O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning "Olyi, o'rta maxsus va professional ta'lrim tashkilotlarida xotin-qizlarning ta'lrim olishlarini qo'llab-quvvatlashga doir chora-tadbirlar to'g'risida"gi qarorining qabul qilingani xotin-qizlarning ta'lrim olishiga qaratilgan yuksak e'tibordir. Unga ko'ra, 2022/2023-o'quv yilidan boshlab barcha xususiy, xorijiy va davlat oliy, o'rta maxsus va professional ta'lrim tashkilotlarida kunduzgi, sirtqi va kechki ta'lrim shaklida xotin-qizlarning to'lov-kontrakt asosida tahsil olishi uchun imtiyozli shartlarda ta'lrim kreditlarini davlat byudjetidan ajratishning yangi tizimi joriy etiladi.

Ya'ni, yangi o'quv yilidan boshlab tijorat banklari Moliya vazirligi tomonidan joylashtiriladigan depozit mablag'lari hisobidan ta'lrim kreditlarini 7 yil muddatga 14 foiz stavkada ajratadi. Bunda kreditning foiz stavkalarini so'ndirish Moliya vazirligi huzuridagi Ta'lrim kreditini moliyalash-tirish jamg'armasi mablag'lari hisobidan, ularni tijorat banklariga to'lash orqali amalga oshiriladi.

Tijorat banklari Moliya vazirligi tomonidan joylashtiriladigan depozit mablag'lari hisobidan ta'lrim kreditlarini 14 foiz stavkada ajratishi, ta'lrim kreditining asosiy qismi talabaning rasmiy o'qish muddati tugagandan so'ng, yettinchi oydan boshlab 7 yil davomida qaytarilishi, ta'lrim krediti bo'yicha foiz stavkalarini so'ndirish Moliya vazirligi huzuridagi Ta'lrim kreditini moliyalash-tirish jamg'armasi mablag'lari hisobidan, ularni tijorat banklariga to'lash orqali amalga oshirilishi qarorda ko'rsatilgan. Ta'lrim kreditini rasmiylashtirishda va uning qaytarilishida talabaning domiydaromad manbasiga ega bo'lgan oila a'zolari va boshqa uchinchi shaxsga qarz oluvchi sifatida qatnashishiga ruxsat etiladi va "Ijtimoiy himoya yagona reyestri"ga kirgan oilalar xotin-qizlariga ajratiladigan ta'lrim kreditlari uchun garov va kafilliklar talab etilmaydi.

Yuqorida ta'kidlangan imkoniyatlarining barchasi xotin-qizlarning ta'lrim olishiga qaratilgan. Zeroki, Muhtaram Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev ta'kidlaganidek, "Ta'lrim tizimining barcha pog'onalarida o'qishga intilgan xotin-qizlarni qo'llab-quvvatlaymiz va ularga sharoit yaratamiz, bu imkoniyat hali bizning tariximizda umuman bo'Imagan". Ushbu yaratilgan keng imkoniyatarning amaliyotida faol bo'lish millat vakili sifatida har birimizning burchimizdir.

**S.N. SAIDXODJAYEVA
G.K. VAFOYEVA**

SANKT-PETERBURGDAGI TALABALAR BILAN UCHRASHUV

2022-yil 8-sentabr kuni Toshkent pediatriya tibbiyot instituti rektori Botir Daminovning Sankt-Peterburg davlat pediatriya tibbiyot universitetiga rasmiy tashrif bo‘lib o‘tdi.

Tashrif davomida institut rektori professor Botir Daminov Sankt-Peterburg davlat pediatriya tibbiyot universiteti bilan birga qo‘shma ta’lim dasturlari asosida tashkil etilgan Toshkent pediatriya tibbiyot institutining Xalqaro fakulteti talabalarini va ordinatorlari bilan uchrashuv va ochiq muloqot o‘tkazdi. Shuningdek, talabalarning o‘quv jarayoni va yashash sharoitlari bilan tanishdi.

Uchrashuv hamda ochiq muloqot davomida barcha talabalar Sankt-Peterburg

pediatriya universitetida ta’lim sifatini yuqori baholadilar va universitetda shaxsni har tomonlama rivojlantirish uchun sharoitlar mavjudligini ta’kidladilar. Shuning bilan bir qatorda talaba-yoshlarni qiyinayotgan masalalar tinglandi va ularga joyida yechim topildi.

Ma’lumot uchun: Xalqaro fakulteta birinchi qabul 2019-2020-o‘quv yilida “Pediatriya” va “Davolash ishi” ta’lim yo‘nalishlari bo‘yicha amalga oshirilgan. Bunda, ya’ni qo‘shma ta’lim dasturlari asosida tashkil etilgan ta’lim jarayonida 3+3 formati ko‘zda tutilgan bo‘lib, dastlabki uch yil davomida talabalar Toshkent pediatriya tibbiyot institutida, keyingi uch yil



Sankt-Peterburg davlat pediatriya tibbiyot universitetida tahsil olishlari lozim bo‘ladi. Talabalar ushbu ta’lim dasturlarini bitirgach esa ikkala universitetning diplomiga ega bo‘lishadi.

S. NURXODJAYEV

TIBBIY OLIY O‘QUV YURTLARIDA QANCHА TALABA BOR?

Yangi o‘quv yilda tibbiyot oliy ta’lim muassasalarida qancha talaba tahsil olmoqda?

SSV Matbuot xizmatining ushbu savoliga vazirlilikning Fan va ta’lim bosh-qarmasi boshlig‘i O‘ktam Ismailov javob berdi.

O‘ktam Ismailovning ma’lumotiga ko‘ra, bugungi kunda yurtimizda 11 ta davlat tibbiyot oliy ta’lim muassasasi, 2 ta xorijiy tibbiyot universiteti filiallari (N.I.Pirogov nomidagi Rossiya milliy tadqiqot tibbiyot universiteti filiali, Qozon federal universiteti filiali) faoliyat yuritmoqda.

Shuningdek, 3 ta xususiy (AKFA universiteti, Yevropa tibbiyot universiteti, Toshkent Yodju texnika instituti) oliy ta’lim muassasasi, Guliston, Qarshi davlat universitetlari, Jizzax va Navoiy davlat pedagogika institutlari hamda O‘zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universitetlarida tibbiyot fakultetlari tashkil etilgan.

Ularda bakalavriat bosqichi bo‘yicha 13 ta, magistratura bosqichi bo‘yicha 45 ta, klinik ordinaturada 32 ta hamda internaturada 21 ta mutaxassislik asosida kadrlar tayyorlanyapti.

Ayni paytda tibbiyot oliy ta’lim muassasalaridagi umumiyl talabalar soni 53 807 nafardan iborat bo‘lib, jumladan, bakalavriat bosqichida 48 042 nafar, magistratura da 2 743 nafar, klinik ordinatura esa 3 022 nafar talaba tahsil olmoqda.

Shuningdek, bugun yurtimizda o‘rta tibbiyot xodimlari 27 ta tibbiyot kollejlari va 47 ta Abu Ali ibn Sino nomidagi jamoat salomatligi texnikumlarida tayyorlanyapti. Xususan, tibbiyot kollejlarda 7 ta yo‘na-



lish, Abu Ali ibn Sino nomidagi jamoat salomatligi texnikumlarida esa 6 ta yo‘nalish bo‘yicha jami 80 975 nafar o‘quvchi kasb sirlarini puxta o‘zlashtirayotir.

Qayd etish lozim, joriy yil tibbiyot oliy va o‘rta maxsus ta’lim muassasalarida o‘quv jarayonlariga bir qancha ilg‘or yangiliklar tatabiq etildi. Jumladan, bakalavriat ta’lim yo‘nalishlari, magistratura va klinik ordinatura mutaxassisliklari o‘quv jarayonidagi amaliy ko‘nikmalarni simulyatsion markazlarda o‘zlashtirish hamda bitiruvchi kurslarning o‘quv jarayonini davolash profilaktika muassasalarida o‘tkazishi yo‘lga qo‘yildi.

Qolaversa, ushbu o‘quv yilidan boshlab tibbiyot oliy muassasalarida 36 ta xorijiy davlatdan kelgan 450 nafar malakalari pedagog talabalarga bilim bermoqda. Bundan tashqari, shu yildan boshlab o‘qish

muddati 1 yillik bo‘lgan birlamchi maqsadli ixtisoslashtirish kurslari (internatura) joriy etilib, yiliga 540 nafar tor doiradagi kadrlar tayyorlash tizimi yaratildi.

Tibbiyot kollejlari va texnikumlari o‘quv reja va dasturlarda maxsus fanlarning amaliy qismi ulushi 50 foizdan 75 foizga oshirilib, tibbiyotda xorijiy til, tibbiyotda axborot texnologiyalari kabi fanlar kiritildi.

Ayniqsa, joriy o‘quv yilidan o‘rta maxsus tibbiyot bilim yurtlarida bitiruv amaliyot ishlari viloyat ko‘p tarmoqli tibbiyot markazlari, ixtisoslashtirilgan markazlar va ularning filiallari hamda oliy tibbiy ta’lim muassasalarini klinikalarida o‘tkazilishi bo‘lajak hamshiralari bilimini yanada mustahkamlashga xizmat qiladi.

Hasanxo‘ja ABIDOV

SIZ DOIM YODIMIZDASIZ



ko‘rgazmasining ochilishi hamda “31-avgust Qatag‘on qurbanlari xotirasini yod etish kuni” munosabati bilan “Siz doimo yodimizdasiz” mavzusida ma’naviy-ma’rifiy tadbir o‘tkazildi.

Tadbirni Qatag‘on qurbanlari xotirasi davlat muzeyi direktori, tarix fanlari doktori, professor Baxtiyor Hasanov kirish so‘zi bilan ochdi. Vatanimiz tarihinining qora kunlari haqida shuningdek, kechada “Ular Germaniyada o‘qigan edilar” hujjatlari filmi namoyish etildi.

Tadbir davomida Qatag‘on qurbanlari xotirasi davlat muzeyi yetakchi ilmiy xodimi, akademik Naim Karimov, muzey bosh ilmiy xodimi, tarix fanlari bo‘yicha PhD Bahrom Irzayev, tadqiqotchi olim, tarix fanlari nomzodi Sherali Turdiyevning qizi, taniqli shoira, Toshkent pediatriya tibbiyot institutining o‘zbek, rus va lotin tillari kafedrasi mudiri, filologiya fanlari nomzodi Kavasar Turdiyevlar Qatag‘on qurbanlarining qiziqarli va ayanchli taqdirlari haqida ma’lumot berdilar.

Zilola SODIQOVA

Tarixiy haqiqatni qaror toptirish, Vatanimiz ozodligi va erkinligi yo‘lida qurban bo‘lgan xalqimizning suyukli farzandlari nomini tiklash, ularning hayoti va faoliyatini o‘rganish, tadqiq va targ‘ib etish maqsadida mamlakatimizning birinchi Prezidenti tashabbusi bilan 2000-yil 12-mayda poytaxtimizning Yunusobod tumanida “Shahidlar xotirasi” yodgorlik majmui ochildi va shundan buyon har yili 31-avgust – Qatag‘on qurbanlarini yod etish kuni etib belgilandi.

Mazkur sana munosabati bilan har yili Qatag‘on qurbanlarini yod etish kuni millat yuksalishi, vatan ozodligi yo‘lida jonini tikkan vatandoshlarimiz yana bir bor yodga olinadi. Ularning qora bulutlar ostida kechgan hayoti haqida bilish – yoshlar kamolotida muhimdir. Istiqlochning ilk kunlaridan boshlab milliy

qadriyatlarni tiklash, tariximizni xolis va haqqoniyligi o‘rganish, aziz siymlar xotirasini e’zozlash, madaniyatimiz va san’atimiz rivojiga hissa qo‘shtigan ijodkorlar faoliyati, ularning boy ma’naviy merosini tadqiq etish, targ‘ib va tashviq qilish, tarixiy adolatni qaror toptirish borasida keng ko‘lamli ishlar amalga oshirilmoqda.

Respublika Ma’naviyat va ma’rifat markazida O‘zbekiston Respublikasi Va-zirlar Mahkamasi huzuridagi Qatag‘on qurbanlari xotirasi davlat muzeyi, Toshkent shahar Xalq ta’limi bosh boshqarmasi hamda Alisher Navoiy nomidagi O‘zbekiston milliy kutubxonalar bilan hamkorlikda Turkistonlik talabalarning Germaniyaga tahsil olish uchun yuborilganligining 100 yilligiga bag‘ishlangan “Ular Germaniyada o‘qigan edilar” nomli



O‘zbekiston Respublikasi Sog‘liqni saqlash vazirligi TOSHKENT PEDIATRIYA TIBBIYOT INSTITUTI

Professor-o‘qituvchilar tarkibi bo‘yicha quyidagi kafedralar lavozimlariga TANLOV e’lon qiladi:

PROFESSORLAR: Akusherlik va ginekologiya, bolalar ginekologiyasi; Ichki kasalliklar, nefrologiya va gemodializ.

DOTSENTLAR: Oftalmologiya, bolalar oftalmologiyasi; Akusherlik va ginekologiya, bolalar ginekologiyasi; Tibbiy va biologik kimyo; Anatomiya, Bolalar kasalliklari propedevtikasi; Neonatologiya; Otorinolaringologiya, bolalar otorinolaringologiyasi; Oilaviy shifokorlik №1.

KATTA O‘QITUVCHILAR: Patologik fiziologiya; Anatomiya; Biofizika, tibbiy informatika.

ASSISTENTLAR: Asab kasalliklari va bolalar asab kasalliklari; Bolalar kasalliklari propedevtikasi; Patologik anatomiya.

Tanlov muddati – e’lon chiqqan kundan 1 oy. Manzilgoh: Bog‘ishamol ko‘chasi 223, Tosh PTI.

Avtobuslar: 115, 19 ToshPTI bekti. 10.09.2022.

 <p>TOSHKENT PEDIATRIYA TIBBIYOT INSTITUTI MEHNAT JAMOASI NASHIRI ОРГАН ТРУДОВОГО КОЛЛЕКТИВА ТАШКЕНТСКОГО ПЕДИАТРИЧЕСКОГО МЕДИЦИНСКОГО ИНСИТИУТА</p>	<p>Tahrir kengashi: D.A. Asadov, A.V. Alimov, X.F. Haydarov, M. Ahmedova, K.N. Haitov, S.S. Gulyamov, D.T. Ashurova, A. Rahmatullayev, S. Nurxodjayev A. Valiyev, A. Nosirov, Nashr uchun mas’ul: Sh. Abduhoshimova</p>	<p>Bosh muharrir: B.T. DAMINOV Tahrir hay’ati: (ishchi guruh) E.O. Tursunov, K.Sh. Turdiyeva (Bosh muharrir o‘rinbosari), A.M. Mannonov, D.A. Ahmedova, H. Rasulov S.A. Begmonov, H. Abidov, Z. Karimova, A. Xudayberdiyev</p>	<p>Gazeta Toshkent shahar matbuot va axborot boshqarmasida 29.12.2006-yil 02-0010-son bilan ro‘yxatga olingan. Manzil: 700140, Toshkent-140, Bog‘ishamol ko‘chasi, 223 “XALQ NASHRIYOTI” XKda chop etildi. Manzil: Toshkent sh., Qurasaroy ko‘chasi, 316 uy. Tel.: (71) 242-0510; (95) 170-04-02; (99) 040-04-02. buyurtma adadi 110 nuxxa, qog‘oz bichimi A3. Gazeta institut hisobidan nashr etildi va bepul tarqatiladi.</p>
---	---	--	--